

## Afg‘oniston “Qo‘Shtepa”Ga Loyiqmi?

**Shamsiyev Saidakbar**

Jahon Iqtisodiyot va Diplomatiya Universiteti, Xalqaro Munosabatlar Fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Barcha davrlar uchun suv resursi juda muhim hisoblanib kelgan. Xususan, O‘rta Osiyo sivilizatsiyasida ikki daryo: Amudaryo va Sirdaryo suvlari asosiy manbaa bo‘lib, xalqlar hayoti uchun qadrlil bo‘lgan. Bugun Afg‘oniston ushbu qadriyatdan foydalanib, yon qo‘shnilariga zarar yetkazish xavfi vujudga keldi. Urushlardan boshi chiqmay kelayotgan Afg‘on xalqi Amudaryo suvidan foydalanishga haqlimi yoki yo‘q? bu savolga quyida javob berishga harakat qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘shstepa kanali, Markaziy Osiyo, suv resurslari, Afg‘oniston, O‘zbekiston.

Qadimda Turkiston deb ataladigan hudud bugungi kunda O‘zbekiston, shimoliy Afg‘oniston, Tojikiston, Janubi-sharqiy Turkmaniston, Janubiy Qozog‘istonni o‘z ichiga olgan. Ushbu hudud aholisi qadimdan o‘zlarini bir xalq, bir hudud aholisi sifatida ko‘rib, yashab istiqomat qilib kelgan(1). Asosan qishloq xo‘jaligiga asoslangan O‘rta osiyo xalqlarining asosiy suv manbasi Amudaryo va Sirdaryo hisoblangan. Ushbu daryolardan ariq va kanallar orqali suv chiqarilib dehqonchilik bilan shug‘ullanilgan. Afsuski tarix so‘qmoqlari ushbu holatni butkul o‘zgartirib yubordi.

Eng avvalo, bu muammoning paydo bo‘lish sabablariga qararak, uning ildizi o‘tgan asrning boshlarida tashkil topgan Sovet sotsialistik respublikasidir(SSSR). Xo‘sh bu qanday bo‘ldi? Dastavval, 1917-yilgi ulug‘ revolutsiyasidan so‘ng, 1922-yil 30 dekabrda Sovet davlati vujudga keldi. Ushbu davlat avvalgi Rossiya imperiyasi davridagi hududlarga soqit chiqdi. Buning tarkibida Turkiston general-gubernatorligi ham bor edi. Maqsadi abad-ul abad Turkistonni birlashtirmaslik bo‘lgan bolsheviklar 1924-yilda Milliy chegaralanish o‘tkazdi. Natijada ushbu hududda dini, madaniyati, tili, maqsadi bir bo‘lgan 5 ta davlat vujudga keldi(2). Qadamma-qadam odamlar ongiga millatchilik va alohida xalqchilik tushunchasi singdirib borildi. Dahshatli Ikkinchi Jahon Urushidan so‘ng SSSR misli ko‘rilmagan talofat ko‘rdi. G‘arb yordamini rad etgan bolsheviklar milliy respublikalarni talash hisobiga o‘zini tiklash yo‘lini tanladi. Hudud taqsimoti bo‘yicha bizning respublikalar qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirildi. Ushbu besh respublikada paxta monokulturasini o‘rnatildi. Albatta, butun SSSR ni paxta bilan ta‘minlash juda katta miqdorni talab etardi. Natijada hududdagi qumlik va cho‘l yerlarni o‘zlashtirish boshlandi. 1956-yilda Mirzacho‘l hududini, 1960-yillarda Qarshi cho‘llarini, Qozog‘iston va Turkmaniston hududlaridagi cho‘llarni o‘zlashtirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. Bu shubhasiz, katta miqdorda suv resurslarini talab etardi. 60-yillardan boshlab yerlarni o‘zlashtirish natijasida, Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan foydalanila boshlandi. Bu esa, mintaqadagi eng ekologik dolzarb muammo Orol cho‘llanishiga sabab bo‘ldi. Aynan, 1960-1970 yillar davomida qurilgan “Qoraqum” kanali Orolni qurishini boshlab berdi. Ushbu kanal 1435 km bo‘lib Turkmanistonning janubiy viloyatlarini suv ta‘minlagan(3). Shu qatorda “Qarshi” kanali ham Amudaryo suving katta qismini olgan. SSSR tarqalib ketgach, Islom Karimov tashabbusi bilan ilk bor “Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi” tashkil etildi. Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslarida oqilona foydalanish borasida bir qancha kelishuvlarga erishildi. Ammo Tojikiston davlatining “Qambarota” va “Rog‘un” GESlarini qurishni boshlashi mintaqada suv

muammolarining avj olish fonida paydo bo'ldi. 2010-yil BMT shofeligida Transchegaraviy daryolardan foydalanish to'g'risida kelishuvga erishildi. Mintaqada bir muddat suv muammosi o'z yechimi topgandek ko'ringan edi. 2016-yilda Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelishi munosabati bilan, Markaziy Osiyoga yangi ruh, Yaxshi qo'shnichilik, konsepsiyasi ilgari surildi. Shu munosabat bilan "Qambarota" va "Rog'un" GES lari qurilishiga ruxsat berildi(4). Ammo, butun dunyoda sodir bo'layotgan global iqlim o'zgarishi, havo haroratining yildan-yilga ko'tarilishi natijasida, tabiatan suv tanqis bo'lgan Markaziy Osiyoda suv muammosi qayta boshladi. Amudaryo va Sirdaryo suvlari yil sayin kamayish ko'rsatgichlarini namoyish etmoqda. Davlatlarda suvga chidamli o'simliklarni ekish, kam suv sarf qiladigan texnikalardan qishloq xo'jaligida foydalanish, suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida brigalikda harakat qilib kelinmoqda. Shunday vaziyatda, endigina hokimiyatda kelgan Afg'onistondagi Tolibonlar hukumatining Amudaryodan suv chiqarish dasturidagi "Qo'shtepa" kanali mintaqa uchun yana bir jiddiy xavfga aylanyapti. Xo'sh Afg'onistonga bu kanal nimaga kerak?

Bo'ysunmas Afg'on xalqi mana qariyb 50 yildan beri urush holatida. Dastlab, Muhammad Dovud boshlab bergan ichki kurashlar, keyinchalik xalqaro maydondagi nizolarga sabab bo'ldi. Avvaliga, Sovet davlati 80-yillarda harbiy harakatlar olib borgan bo'lsa, 2000-yillardan boshlab esa Amerika Qo'shma Shtatlari faol harbiy harakatlar olib bordi. Hududdagi bir qancha terror guruhlar mamlakatni bir necha qismga bo'lib oldi. Natijada, 2003-yilda AQSH yordamida tuzilgan hukumat davlatda real hokimiyatni egallay olmadi. Tolibonlar restavratsiya, ya'ni, avval egallab keyin yo'qotilgan hokimiyatni yana qayta egallash orqali 2021-yilda hukumat boshiga keldi. Ushbu uzoq davr mobaynida Afg'oniston iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalarda mislsiz yo'qotishlarga uchradi. Davlat iqtisodiy tizimi butkul izdan chiqib ketdi. Asosiy iqtisodiy Tovar narkotik savdosi bo'lib qoldi. Aholining yashash darajasi eng qoloq, achinarli holatga keldi. Hozirda mamlakatda tushkunlik, umidsizlik, ocharchilik va butun mamlakat bo'ylab qurg'oqchilik hukm surmoqda. Tolibonlar hukumati ushbu muammolarga yechim sifatida "Qo'shtepa" loyihasi boshladi.

"Qo'shtepa" kanali 2022-yilda boshlanib, uzunligi 285km, eni 100 metr, chuqurligi 8.5 metr bo'lishi kutilmoqda. Hozirda kanalning birinchi navbatdagi 100 km qismi qurib bitkazildi. Ikkinchi qismi qurish ishlari davom etmoqda. Tolibon ushbu kanal orqali shimoliy viloyatlarni, ya'ni, 550 ming gektar maydonni sug'orish tizimini yo'lga qo'yishni maqsad qilib qo'ygan(5). Afg'oniston hukumati vakillari ushbu kanal har qanday sharoitda ham qurilishi ta'kidlab, uni butun islomiy qo'shin orqali himoya qilishini aytib o'tgan. Bu borada Markaziy Osiyo davlatlarining ekspertlari ham o'z xulosalarini bildirishgan. Masalan, tojikistonlik ekspert Homidjin Orifov: "Afg'oniston qancha suv kerak bo'lsa, shuncha olishga huquqi bor. Mamlakat hozir deyarli falokatli hududga aylandi: urush oqibatlarini, iqtisodiy blokada, odamlar hatto oziq-ovqatga ham ega emas. Gap Orol dengizini misol qilib olib, mintaqa uchun ekologik oqibatlar haqida bormoqda. Lekin uni quritgan afg'onlar emas",- fikrini bildirgan(6). Markaziy Osiyo yagona suv havzasi, biz bir uy, bir ekotizmida yashaymiz. Mahalliy qonunbuzarliklar barchamizga ta'alluqli. Suv muammosi barchamizning muammomizdir, deb ta'kidlaydi Qozog'istonlik mutaxassis Bulat Yesekin. Uning fikricha bugun hech bir davlat suvdan oqilona foydalanmayapti, barcha birdek hamkorlik qilishi kerakligi aytadi(6). O'zbekiston suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev fikriga ko'ra, "Qo'shtepa" kanali qurilishi siyosiy tus olgan, ba'zi qudratli iqtisodiy davlatlar ushbu qurilish uchun katta mablag' beryapti va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga urinmoqda. Siyosiy kelishmovchilik bo'lmasligi uchun ushbu davlat nomini aytmaligini, ammo Afg'oniston bu masala bo'yicha yolg'iz emasligini ta'kidlab o'tgan(7). Rasmiy axborotlarning xabar berishicha bugungi kungacha O'zbekiston delegatsiyasi Afg'onistonga ikki marotaba rasmiy tashrif bilan borgan. Bugungi kunda bir qancha loyihalar, takliflar mavjud bo'lishiga qaramay, ma'lum bir kelishuvga erishib bo'lmadi. Muammoning asl sababi ham shu yerda bo'lib, hozirda Markaziy Osiyo davlatlari bilan Afg'oniston o'rtasida aniq kelishuv, shartnoma mavjud emas. Agar Tolibon bilan suv resurslari bo'yicha aniq shartnoma, kelishuv imzolansa bu muammoni bartaraf etish istiqboli ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amudaryo - qadimdan shu kunga qadar bu yerda yashovchi xalqlarni suv bilan ta'minlab kelgan eng asosiy yirik daryo. Undan hech bir davlat boshqasiga

qaraganda ko‘proq foydalanishga haqli emas. Shu qatori Afg‘oniston ham. Tinchlik, muzokaralar va diplomatiya orqali bu muammoga yechim topilishi, mintaqa davlatlari uchun eng samarali va foydalidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston tarixi; 7-sinf uchun darslik: Qayta ishlangan uchinchi nashr / Muall.: A. Muhammadjonov. – T.: “Sharq”, 2017. – 160 b.
2. O‘zbekiston tarixi: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik / muall.: Q. Rajabov, A. Zamonov. 1-nashri. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 144 b.
3. Wikimedia Foundation. (2022, September 4). *Qoraqum Kanali*. Wikipedia. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqum\\_kanali](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqum_kanali)
4. O‘zbekiston tarixi: O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik / muall.: N. Jo‘rayev, A. Zamonov. 1-nashri. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 142 b.
5. Wikimedia Foundation. (2023, March 27). *Qo‘sh tepa Kanali*. Wikipedia. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBsh tepa\\_kanali](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBsh tepa_kanali)
6. “*Orolni Quritgan Afg‘onlar Emas*”. Ekspert “*tolibon*” SUV olishga Haqli Ekanini Aytdi. Qalampir.uz. (n.d.). <https://qalampir.uz/uz/news/orolni-k-uritgan-afgonlar-emas-ekspert-tolibon-suv-olishga-%D2%B3ak-li-ekanini-aytdi-93306>
7. uz, K. (n.d.). *Qo‘sh tepa kanali – Siyosiy Loyiha*. Kun.uz. <https://kun.uz/uz/news/2023/09/29/qoshtepa-kanali-bu-siyosiy-loyiha>